







2
0
2
4



№ 3

Muhandislik va Iqtisodiyot



ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal



Muhandislik va Iqtisodiyot

Elektron nashr.
166 sahifa. Sentabr-oktabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Eshov Mansur Po'latovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zariybayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti

Muhandislik va Iqtisodiyot

EKSPERTLAR

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Elektron nashr.
160 sahifa. Sentabr-oktabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.



MUNDARIJA

Aksiyadorlik jamiyatlari investision faoliyatini rivojlantirishning muhim jihatlari.....	12
Abdurazakova Nargiza Rixsibaevna	
Buxgalteriya hisobida majburiyatlar va ularni tan olish mezonlari.....	19
Boltaev Abror Sayitmuradovich	
Banklararo raqobatning bank tizimi barqarorligiga ta'siri.....	25
Ortiqov Oybek Abdullaevich	
The improvement of funding business operations for the local enterprises in the Republic of Uzbekistan through issuing financial securities by means of the Tashkent Stock Exchange	34
Abduganiev Abdulaziz	
Shaxs ishbilarmonlik muloqotining subyekti sifatida.....	39
Turayeva Dinara Tulkunovna	
O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida kambag'allik darajasining aholi turmush farovonligiga ta'siri.....	44
Xayitov Sherbek Naimovich	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	52
Masharipov Maxmud Bekturdievich	
Auditorlik tekshiruvining o'tkazishda dalil to'plash va natijalarni umumlashtirishda tahliliy amallarni qo'llanishi.....	59
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
Moliyaviy globalizatsiya sharoitida xorijiy mamlakatlar banklarida an'anaviy operatsiyalar amaliyoti va uni O'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari	70
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Innovatsion menejment yondashuvlari asosida sanoat korxonalarini faoliyatini boshqarish va tashkil etish	79
Bakayeva Mohira Ahrorovna	
Tijorat banklarida investitsion risklarni boshqarishni takomillashtirish.....	85
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Elektron sigaretalar hamda qizdirilgan tamaki iste'moli ortishi va uni tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	91
Mirzaliev Sanjar Maxamatjon o'g'li, Boykabilov Bahodir Mustafaevich, Qoraboev Bobur Umarovich, Ugay Darya Sergeevna, Mirzalieva Surmaniso Alisher qizi	
Makroiqtisodiy siyosat va mehnat bozorining aloqadorligi.....	99
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li	
Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarini axborot tizimlari orqali tashkil etishning amaliy jihatlari	105
Muslitdinov Nodir	
Transmission mexanizm foiz kanalining bozor foiz stavkalariga ta'siri	111
Absalamov Akram Tolliboyevich	
Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda nomutanosibliklarni bartaraf etishning iqtisodiy samaradorligi.....	118
Madraximov Kaxramon Egamberganovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	126
Nasurova Kamolaxon Ravshanovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish	133
Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li	



Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditing xususiyatlari.....	138
Nazarova Kamola Sattoral qizi	
O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ida "tejamkor ishlab chiqarish" kontsepsiyasidan foydalanish holati tahlili	146
Butaev Dowlatali Inomovich	
Capital asset pricing model evaluation in production companies.....	152
Bunyod Usmonov	
Moliyaviy nazoratni tashkil qilish va amalga oshirishga metodologik yondoshuvlar.....	160
Hakimov Nodir Nazarovich	

MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISH VA AMALGA OSHIRISHGA METODOLOGIK YONDOSHUVLAR

Hakimov Nodir Nazarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Moliyaviy nazorat makro va mikro darajada mavjud bo'lib, uni samarali tashkil etish muayyan mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur mexanizmlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki mustahkam metodologik asoslarga tayanadi. Moliyaviy nazoratning metodologik asoslari uning tizimli va barqaror faoliyat yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirishning metodologik masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolada moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirishning metodologik jihatlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliya, moliya tizimi, davlat moliyasi, korxonalar moliyasi, metodika, metodologiya, strategiya, moliyaviy nazorat, nazorat, pul mablag'i, pul fondlari, moliyaviy tekshiruv, javobgarlik, moliyaviy javobgarlik, xarajat, daromad, mablag'larning maqsadli sarflanishi, mablag'larning manzilli sarflanishi, byudjet, davlat byudjeti.

Abstract: Financial control exists at both macro and micro levels, and its effective organization requires the development of specific mechanisms. These mechanisms do not emerge spontaneously but are based on solid methodological foundations. The methodological basis of financial control is a key condition for its systematic and sustainable functioning. Although a number of scientific studies have been conducted in this field, there remains a need for deeper scientific analysis of the methodological aspects of organizing and implementing financial control. This article examines the methodological issues of organizing and implementing financial control.

Keywords: finance, financial system, public finance, corporate finance, methodology, methods, strategy, financial control, control, cash, monetary funds, financial inspection, responsibility, financial responsibility, expenses, income, targeted use of funds, earmarked use of funds, budget, state budget.

Аннотация: Финансовый контроль существует на макро- и микроуровнях, и его эффективная организация требует разработки определённых механизмов. Эти механизмы не возникают самостоятельно, а формируются на основе прочной методологической базы. Методологические основы финансового контроля являются важным условием его системного и устойчивого функционирования. Несмотря на наличие научных исследований в данной области, сохраняется потребность в более глубоком научном анализе методологических аспектов организации и осуществления финансового контроля. В статье раскрываются методологические вопросы организации и реализации финансового контроля.

Ключевые слова: финансы, финансовая система, государственные финансы, финансы предприятия, методика, методология, стратегия, финансовый контроль, контроль, денежные средства, денежные фонды, финансовая проверка, ответственность, финансовая ответственность, расходы, доходы, целевое использование средств, адресное использование средств, бюджет, государственный бюджет.



KIRISH

Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya bo'lsa-da, uni to'g'ri tashkil etish va samarali amalga oshirish korrupsion holatlarning oldini olishga, xufyona iqtisodiyot hajmini kamaytirishga, mavjud mol-mulklarni o'zlashtirish, moliyaviy resurslarni talon-toroj qilish hamda maqsadli pul mablag'larining maqsadsiz sarflanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy nazorat o'zida iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy hamda ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Ushbu munosabatlarning tizimli va samarali harakat qilishi ularni to'g'ri va optimal tashkil etishga bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, moliyaviy nazoratning metodologik asoslarini puxta ishlab chiqishni talab etadi.

Qayd etilganidek, moliyaviy nazoratning metodologik asoslari uning tizimli faoliyat yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Ushbu masala yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirishning metodologik jihatlarini chuqur ilmiy o'rganishga ehtiyoj hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy nazorat bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni ko'rib chiqish mavzuning turli jihatlarini qamrab olgan ko'plab ilmiy ishlardan iborat. Jahon amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, moliyaviy nazoratning metodologik masalalariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan, 2016-yilda Ibrohim N.A. va J.P. Angelidis tomonidan o'tkazilgan "Ichki audit funksiyasi sifati va uning audit kechikishiga ta'siri" nomli tadqiqotda korxonalarda moliyaviy nazoratning tashkiliy asoslari hamda uning natijadorligiga ta'sir etuvchi metodologik omillar tahlil qilingan.

Shuningdek, 2017-yilda Al-Dmour tomonidan e'lon qilingan "Banklarning ichki nazorat tizimlarining samaradorligi: lordaniya tijorat banklari misolida empirik tadqiqot" ishida bank tizimida moliyaviy nazoratning metodologik jihatlarini chuqur o'rganilgan. 2016-yilda Al-Shammari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda esa "Audit komissiyasi xususiyatlarining moliyaviy hisobot sifati ta'siri: lordaniyadan olingan empirik dalillar" mavzusi doirasida tijorat banklarida moliyaviy nazoratning ichki mexanizmlari tahlil qilingan.

Bundan tashqari, 2018-yilda D. Zhang va boshqalar tomonidan olib borilgan "Ichki nazoratning firma faoliyatiga ta'siri" yo'nalishidagi tadqiqotlar ichki moliyaviy nazoratning korxonada faoliyatiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, natijalar ichki nazorat sifati bilan firmaning moliyaviy ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan. 2016-yilda J. Scheper va boshqalar tomonidan olib borilgan "Boshqaruv jarayonida auditning roli" nomli tadqiqotlarda esa moliyaviy nazorat va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik metodologik jihatdan asoslab berilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar son jihatdan nisbatan kam bo'lsa-da, ularning ayrimlari alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, Srojiddinova Z.X. va N.B. Tulyaganova O'zbekiston Respublikasining byudjet siyosatini tadqiq etish jarayonida moliyaviy nazoratning tashkiliy jihatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Iqtisodchi olimlar H. Qobulov va K. Xojiyevlar byudjet taqchilligini kamaytirish usullariga bag'ishlangan tadqiqotlarida moliyaviy nazoratning ahamiyatini yoritganlar. Shuningdek, iqtisodiyot fanlari doktori B. Turapov o'zining "O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida qator metodologik masalalarni, jumladan, respublikada moliyaviy auditni joriy etish asosida buxgalteriya (byudjet) hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlash, moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish hamda moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini baholash tizimini tadqiq etgan.

Biroq, ta'kidlash joizki, moliyaviy nazorat ko'lamini va amalga oshirilishi jihatidan deyarli barcha tarmoq va sohalarni qamrab oladi. Shu sababli, turli sohalarda moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirishning metodologik jihatlariga oid muammolar hali to'liq o'z yechimini topmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy nazoratga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasi doirasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalaniladi. Moliyaviy nazoratni davlat moliya tizimida tashkil etish jarayonini quyidan yuqoriga va aksincha, yuqoridan quyiga yo'naltirilgan iyerarxik tizim sifatida tahlil qilishda deduksiya va induksiya usullariga tayaniladi.

Moliyaviy nazoratning tashkiliy unsurlarini yagona tizim asosida o'rganishda tahlil va sintez usullaridan foydalaniladi. Davlat moliyaviy nazoratiga oid ilmiy tadqiqotlarni ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganishda esa dialektik, abstrakt va mantiqiy yondashuvlar qo'llaniladi.

Bundan tashqari, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullar asosida kompleks tahlillar amalga oshirilib, ular negizida ilmiy-amaliy takliflar shakllantiriladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy nazorat — bu tashkilotning moliyaviy hisobotlarining to'g'riligi, to'liqligi va ishonchligini ta'minlashga, shuningdek, moliyaviy qonunbuzarliklar va xatolarni aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va protseduralar tizimidir. Moliyaviy nazoratning uslubiy masalalari tashkilot moliyasini samarali boshqarish hamda moliyaviy risklarning oldini olishda qo'llaniladigan tamoyillar, usullar va vositalarni qamrab oladi.

Moliyaviy nazorat pul mablag'larining aylanishi, moliyaviy resurslarning harakati, mehnat va ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lgan barcha sohalarda zarur hisoblanadi. U orqali nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va huquqiy munosabatlar ham tartibga solinadi.

Masalan, davlat byudjetidan ajratilgan maqsadli pul mablag'larining o'zlashtirilishi yoki maqsadsiz sarflanishi davlat tomonidan ko'rsatiladigan ayrim ijtimoiy xizmatlarning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy munosabatlarda muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, ijtimoiy nafaqalar yoki pensiya jamg'armalaridan ajratilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq yetib bormasligi, bir tomondan, moliyaviy resurslarning maqsadsiz sarflanganini bildirsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning ahvolini murakkablashtiradi hamda jamiyatda ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi.

Keltirilgan oddiy misolning o'zi moliyaviy nazoratning yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, uni samarali tashkil etish va amalga oshirish uchun uning metodologik asoslarini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).




1-rasm. Moliyaviy nazoratning metodologik-konseptual asoslari

Moliyaviy nazoratni to'g'ri tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun, avvalo, moliyaviy nazoratning metodologik-konseptual asoslari puxta va ilmiy asosda ishlab chiqilishi zarur. Ushbu metodologik-konseptual asoslar o'zaro bog'liq elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida shakllanishi lozim. Har qanday iqtisodiy munosabat yoki jarayon aniq metodologik asosga tayanib tashkil etilsa, uning maqsadlariga erishish imkoniyati oshadi.

Moliyaviy nazoratning maqsadi uning obyektidan kelib chiqib belgilanadi. Ya'ni, nazorat qaysi jarayonga qaratilgan bo'lsa, nazorat dasturi va ish rejasi ham aynan shu jarayon xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak. Masalan, nazorat mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lsa (xodimlarni ishga qabul qilish, ish haqi belgilash, ustamalarni aniqlash va boshqalar), bu jarayonda tegishli soha mutaxassislarini jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moliyaviy nazoratda samaradorlik mablag'larni undirish bilan emas, balki belgilangan maqsadlar doirasida qisqa muddatlarda rejalashtirilgan ishlarni sifatli amalga oshirish bilan belgilanadi. Shu bilan birga, aniqlangan moliyaviy qonunbuzilishlarning sabablarini tahlil qilish va ularni takrorlanishining oldini olish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish ham samaradorlikning muhim ko'rsatkichidir. Bu jarayonda nazoratga jalb etilgan mutaxassislarning malakasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jarayonni raqamlashtirish (axborot tizimlari, elektron nazorat vositalari) mehnat sig'imini kamaytirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda aniq tamoyillarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillarni tashkiliy, amaliy va yakuniy bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Tashkiliy tamoyillar




nazorat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, mutaxassislarni tanlash va maqsadni aniq belgilashni ta'minlaydi. Amaliy tamoyillar esa ilmiylik, ishonchli axborot manbalariga tayanish, tizimlilik, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Moliyaviy nazorat jarayonida ochiqlik tamoyiliga amal qilish nazorat obyektida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi. Biroq, ayrim holatlarda ushbu tamoyilni qo'llash vaziyatdan kelib chiqib ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim.

Yakuniy tamoyillar moliyaviy nazorat natijalarini baholash va xulosalar chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu bosqichda dialektik yondashuv asosida aniqlangan muammolarni sabab-oqibat bog'liqligida tahlil qilish hamda mantiqiylik tamoyiliga amal qilish nazoratning xolisligini ta'minlaydi. Samaradorlik tamoyili esa nafaqat qonunbuzilishlarni aniqlash, balki ularning oldini olish, takrorlanmasligini ta'minlash hamda moliyaviy-huquqiy maslahatlar berishni ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston moliya tizimi va davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda byudjet ochiqligi va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash hamda fuqarolarning moliyaviy huquqlarini himoya qilishda ochiqlik va shaffoflik yondashuvi ustuvor ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash lozimki, moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirishda ilmiy-metodologik yondashuvlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu uni puxta rejalashtirish jarayonidir (2-rasm). Mazkur jarayon nazoratning samaradorligi va natijadorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.



2-rasm. Moliyaviy nazoratni rejalashtirish metodologiyasi¹

Moliyaviy nazorat jarayonidagi muhim metodologik masalalardan biri uni rejalashtirish bilan bog'liq yondashuv hisoblanadi. Chunki moliyaviy nazoratni rejalashtirish metodologiyasini ilmiy asosda to'g'ri shakllantirish nazoratdan kutilayotgan maqsadlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

1 Muallif ishlanmasi.

2-rasmda keltirilganidek, moliyaviy nazoratni rejalashtirish ikki asosiy shaklda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchisi — taktik rejalashtirish bo'lib, u moliyaviy nazoratning aniq maqsadlari bilan bevosita bog'liq holda shakllantiriladi. Ikkinchisi — strategik rejalashtirish bo'lib, u uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, yakunda moliyaviy nazoratdan kutilayotgan natijalarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har ikkala rejalashtirish turida ham qo'llaniladigan tamoyillar, axborot manbalari hamda natijalarni o'zaro taqqoslab borish mexanizmlari umumiy ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish lozimki, strategik rejalashtirish murakkab jarayon bo'lib, unda prognozlashtirish va aniq standartlarni belgilash muhim o'rin tutadi. Moliyaviy nazorat jarayonlarini prognoz qilish, bir tomondan, iqtisodiy jarayonlarni baholashni talab etsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy omillar va hodisalarni ham inobatga olish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu esa mazkur jarayonning murakkabligini yanada oshiradi.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirish uchun turli modellar qo'llanilmoqda. Ushbu modellar orasidan eng mosini tanlab qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayon keng qamrovli izohlarni talab qilgani sababli, uni alohida tadqiqot mavzusi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizda byudjet va unga tenglashtirilgan pul fondlaridan sarflangan mablag'larning manzilli, maqsadli hamda samarali foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy nazorat tadbirlari va ularning natijalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida byudjetdan mablag' oluvchilar doirasida korrupsion holatlar ma'lum darajada kamaygan. Biroq, umumiy moliyaviy qonunbuzilishlar sonida o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bizning fikrimizcha, davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

— birinchidan, davlat moliyaviy nazorat tadbirlarini amalga oshirishda xolislik va adolatlilik tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda, moliyaviy qonunchilikni tahlil qilishda sintez va tahlil usullaridan kengroq foydalanish zarur;

— ikkinchidan, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va o'tkazishda byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarni risk darajasiga ko'ra uch toifaga ajratish maqsadga muvofiq: "qizil" (moliyaviy qonunbuzilishlar muntazam sodir etiladigan), "sariq" (qonunbuzilishlar vaqti-vaqti bilan kuzatiladigan) va "yashil" (qonunbuzilishlar deyarli kuzatilmaydigan). Shu asosda moliyaviy nazorat rejalari differensial yondashuv asosida ishlab chiqilishi lozim;

— uchinchidan, moliyaviy qonunbuzilishlar tahlili davlat byudjeti mablag'laridan foydalanuvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, ushbu jarayonda korrupsion holatlarning oldini olish bilan bir qatorda, davlat mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishini bartaraf etishga qaratilgan kompleks va yaxlit tizimni shakllantirish zarur.

Mazkur yo'nalishlarda tizimli choralar ko'rish davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirishga, byudjet mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni ta'minlashga hamda korrupsion xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. <https://lex.uz/docs/-2304138>
2. Дробозина Л.А. Финансы: учебник для вузов / под ред. Л.А. Дробозиной. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 527 с.
3. Вознесенский Э.А. Финансы как стоимостная категория // Финансы / под ред. А.М. Ковалевой. – М.: Финансы и статистика, 2001. – С. 15, 122–127.
4. Ионович В.В. и др. Финансы: учебник / под ред. В.В. Ковалева. – М.: Финансы и статистика, 2001. – С. 11–13.
5. Иловайский С.И. Учебник финансового права. – Одесса, 1904. // Allpravo.ru, 2005. – С. 25.
6. Забелин Д.Л. Финансирование государственных и муниципальных предприятий в Российской Федерации // Вестник МФЮА. – 2014. – № 2.
7. Кейнес Ж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Гелиос АРВ, 2002. – С. 78.
8. Косса Л. Основы финансовой науки. – М., 1900. – С. 310.
9. Миляков Н.В. Финансы: учебник. – М.: Инфра-М, 2004. – С. 10.
10. Нитти Ф. Основные начала финансовой науки. – М., 1904. – С. 278.
11. Павлова Л.Н. Финансы предприятий. – М.: ЮНИТИ, 1998. – С. 17–18.



12. Пушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. – М.: Инфра-М, 1996. – 192 с.
13. Хискс Ж.Р. Стоимость и капитал. – М.: Прогресс, 1988. – С. 26.
14. Эйберг К.Т. Очерки финансовой науки. – Ярославл, 1893. – С. 248.
15. Романовский М.В. Финансы, денежное обращение и кредит: учебник / под ред. М.В. Романовского. – 3-э изд. – М.: Юрайт, 2018. – 523 с. Malikov T.S. Moliya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2018. – 268 b.
16. Nuriddinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2014. – 344 b.
17. Tashmatova R., Axunova Yu. Finansovyy kontrol: uchebник. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2019. – 512 s.
18. Malikov T.S. Moliya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2018. – 268 b.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

